
EHTIYOJMAND OILALAR HOLIDAN XABAR OLINDI

Toshloq tumanida Ramazon hayiti bayrami munosabati Respublika Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar xolidan xabar olindi.

Bugun 4 nafar xotin-qizlarga nogironlik aravachasi, 2 nafariga quloq eshitish moslamasi va nogironligi bo'lgan F.Ortiqaliyevaga bolalar nogironlik aravachasi topshirildi. Tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Umida Marasulova ularning xonadonlarida bo'lib, Ramazon hayiti bayrami bilan muborakbod etdi.

Tumandagi "Qamchipurash" MFYda yashovchi Raximaxon Yusupova berilgan nogironlik aravachasi yordamida o'zi harakatlana olishini aytib, ko'rsatilgan e'tibordan mamnun ekanligini bildirdi.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar xalqni manfaati uchun xizmat qilayotganini bugungi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan yordamlarda ko'rish mumkin.

2023-04-20 17:58:50